

## MUSTAQILLIK YILLARIDA JAMIYATDA AYOLLARNING TUTGAN O'RNINI VA ROLI

*Xakimov Jahongir Nematjon o'gli*

*TKTI Shahrisabz filiali o'qituvchisi*

*Abdullayeva Shahina va Nematova Ma'rifat*

*TKTI Shahrisabz filiali talabalari*

**Kalit so'zlar:** Jamiyat, qonun, qaror, strategiya, ayollar daftari, temir daftar.

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizda so'nggi yillardagi amalga oshirilgan islohotlar natijasida jamiyatda ayollarning siyosiy nufuzini, faolligi oshgani va ulaning qadr-qimmat yuksaklarga ko'tarilgani yoritilgan.

Biz mustaqillikka erishganimizdan keyin mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqei yuksaltirish, huquq va manfaatlarini himoyalashga alohida e'tibor qaratilib kelmoqda. Ularning yurtimiz siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirokini ta'minlash, ma'naviy va intellektual saviyasini yuksaltirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan etib belgilandi. Ularni har qanday soha yuksaltirish yo'lida so'nggi yillarda keng qamrovli ishlar olib borildi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan xotin-qizlarni nufuzini va siyosiy faolligi ustida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan bo'lsada so'nggi yillarda ularning jamiyatdagi faolligi sezilarli darajada oshdi. Bularning barchasi oxirgi yillarda ularga kata e'tibor berayotganidan darak beradi. Ularni nufuzini oshirish uchun qydagil ishlar oshirildi. Xotin-qizlarga e'tibor hamma vaqt barcha sa'y-harakatlarimiz markazida bo'lishi, hammamizning vazifamizga aylanishi kerak, dedi davlatimiz rahbari. Oilaga e'tibor aslida bu o'zligimizga e'tibordir.. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz xotin-qizlarining hayotiy muhim manfaatlarini ta'minlash, turmush sharoitlarini har tomonlama yaxshilash bo'yicha muhim vazifalarni belgilab berdi. Topshiriqlarga muvofiq, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining barcha bo'g'inlaridagi rahbarlar faoliyati tanqidiy o'rganilib, vazifasiga noloyiq kadrlar o'zgartirildi. Og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan va nogiron xotin-qizlarning manzilli ro'yxati shakllantirilib, ular bilan yakka tartibda ishlash tizimi joriy etildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz xotin-qizlarining hayotiy muhim manfaatlarini ta'minlash, turmush sharoitlarini har tomonlama yaxshilash bo'yicha muhim vazifalarni belgilab berdi. Topshiriqlarga muvofiq, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining barcha bo'g'inlaridagi rahbarlar faoliyati tanqidiy o'rganilib, vazifasiga noloyiq kadrlar o'zgartirildi. Og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan va nogiron xotin-qizlarning manzilli ro'yxati shakllantirilib, ular bilan yakka tartibda ishlash tizimi joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va

oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.<sup>1</sup> 2019 yil 2 sentyabrda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Qonunda “jins bo‘yicha bevosita kamsitish” va “jins bo‘yicha bilvosita kamsitish” tushunchalariga ta’rif berildi, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ularning loyihalarini majburiy huquqiy ekspertizasi, gender statistikasi yuritilishi joriy etildi. Oliy Majlis Senati raisi rahbarligida Gender tengligini ta’minlash masalalari bo‘yicha Komissiya tuzildi. Parlamentning yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari Qo‘mitasi, quyi palatasida Oila va ayollar masalalari Komissiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-iyundagi PQ-4749-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3- fevraldagi PF-6155-son farmoniga muvofiq 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining tavsiyanomasiga ega bo‘lgan xotin-qizlar uchun davlat grandlari asosidagi qabul ko‘rsatkichlari ajratilganligi,<sup>2</sup> shuningdek, ehtiyojmand oilalar farzandi bo‘lgan xotin-qizlar uchun oily-ta’limga ajratiladigan davlat grandlari soni ikki baravarga oshirish orqali oshirish orqali ikki mingga yetkazilishi ma’lumot uchun qabul qilingan. Mahalla va oilani qo‘llab- quvvatlash vazirligi qo‘shimcha davlat grandlari asosidagi qabul ko‘rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berishda „Temir daftar” va „Ayollar daftari” ga kiritilgan oilalarning qiz farzandlari hamda „Yoshlar daftari” ga kiritilgan xotin-qizlarga alohida e’tibor qaratilgan. 2021-yil mobaynida har bir hududda asosan xotin-qizlar faoliyat yuritadigan hunarmandchilik turlariga ixtisoslashgan klasterlar faoilayati joriy etildi.<sup>3</sup> Mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishi hamda bandligini ta’minlashga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo‘llab-quvvatlash....ishlari amalga oshirildi.<sup>4</sup>

Ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir, ishsiz va ijtimoiy faol bo‘lmagan xotin-qizlar bilan “Ayollar daftari”ni yuritish orqali ishlash tizimini yanada takomillashtirish, ularni ijtimoiy — huquqiy, psixologik, tibbiy va moddiy qo‘llab-quvvatlash...<sup>5</sup> maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2022-yildagi 145-sonli qarori asosida ularni jamiyatdagi nufuzini yana bir pog‘ona ko‘tarib, yordam berildi. Ishsizlarini ish bilan ta’minlandi. Shuningdek, ayollarning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishi hamda bandligini ta’minlashga har tomonlama

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.02.2018 yildagi PF-5325-son

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.02.2021 yildagi PF-6155-sonli farmoni

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-iyundagi PQ-4749-son qarori

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.03.2021 yildagi PQ-5020-sonli qarori

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2022-yildagi 145-sonli qarori

ko'maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlab jamiyatda siyosiy faolligi oshirildi.

Mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash... ishlari olib borildi. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.03.2022 yildagi PF-87-sonli farmoni bilan mustahkamlandi.

Qisqacha xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti, davlatimiz rahbari ayollarning jamiyatdagi o'rni va roliga yuqori baho berib, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xotin-qizlarimizning bilimdon, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari bo'lishlari hamda sog'lom va mustahkam oila qurishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish davlatimiz, jamiyatimizning doimiy e'tiboridagi ustuvor vazifa ekaniga alohida e'tibor qaratmoqda. Har bir jamiyatda bo'lgani singari, bizning jamiyatda ayollarning roli har qachongidan yuksaldi va ularning qadr-qimmatini, sha'ni, nufuzini mustahkamlandi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-iyundagi PQ-4749-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.03.2022 yildagi PF-87-sonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.03.2021 yildagi PQ-5020-sonli qarori
- 4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.02.2021 yildagi PF-6155-sonli farmoni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.02.2018 yildagi PF-5325-son
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2022-yildagi 145-sonli qarori.
7. [www.lexUZ](http://www.lexUZ)